



## Toshkent shahrining Demografik holati

(dastlabki ma'lumotlar)

Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra 2 654,6 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning 1-yanvar-sentabr oylarida 82,9 ming kishiga yoki 3,2 % ga o'sgan.

**E'tibor bering:**  
**2020-yil yanvar-sentabr**

Aholi soni **82,9 ming kishiga** ko'paydi.


- FHDYO bo'limlarida **14,1 mingta nikoh** va **2,7 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi


**Aholining  
umumiy  
o'sishi  
82,9  
ming kishini  
tashkil etdi**

## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2020-yil 1-oktabr holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, % da)



Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 374,6 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,2 % ni) va Yunusobod tumanida 349,7 ming kishini (13,2 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 35,7 ming kishini (1,3 %) va Yakkasaroy tumanida 120,9 ming kishi (4,6 %) ni tashkil etdi.




## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi soni  
(2020-yil 1-oktabr holatiga, ming kishida)




**Toshkent shahrining  
aholi soni 2020-yil  
1-oktabr holatiga 2 654,6  
ming kishi, o'tgan yilga  
nisbatan o'sish sur'ati  
3,2 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 12,1 % ga, Yashnobod tumanida 7,1 % ga, Bektemir tumanida 5,3 % ga yetdi. Eng kam o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida 1,9 % ni, Shayxontohur tumanida 1,7 %ni hamda Uchtepa tumanida 1,6 % ni tashkil etdi.

## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

### Toshkent shahrida aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020-yil 1-oktabr holatiga, ming kishida)



#### Ma'lumot uchun

**Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1 355,1 ming kishini, erkaklar soni esa 1 299,5 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2,0% ga erkaklar sonidan ko'proq.**

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 654,6</b>	<b>1 299,5</b>	<b>1 355,1</b>	<b>49,0</b>	<b>51,0</b>
tumanlar:					
Uchtepa	276,1	136,7	139,4	49,5	50,5
Bektemir	35,7	17,4	18,3	48,7	51,3
Yunusobod	349,7	171,1	178,6	48,9	51,1
Mirzo Ulug'bek	282,5	138,4	144,1	49,0	51,0
Mirobod	141,8	69,5	72,3	49,0	51,0
Shayxontoxur	346,3	170,3	176,0	49,2	50,8
Olmazor	374,6	183,0	191,6	48,9	51,1
Sergeli	212,8	102,6	110,2	48,2	51,8
Yakkasaroy	120,9	59,5	61,4	49,2	50,8
Yashnobod	256,0	125,0	131,0	48,8	51,2
Chilonzor	258,2	126,0	132,2	48,8	51,2

## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-setabr oylarida 39,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,4 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida 19,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (23,2 promilledan 25,1 promillega) Mirzo Ulug'bek (15,1 promilledan 15,8 promillega) Sergeli tumanida (23,1 promilledan 25,4 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



**Qiz bolalar:**  
**20,4**  
**ming nafar**



**O'g'il**  
**bolalar:**  
**19,5**



### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-oktyabr

	2019-yil.	2020-yil.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>36 656</b>	<b>39 980</b>	<b>109,1</b>
tumanlar:			
Uchtepa	4 670	5 154	110,4
Bektemir	750	696	92,8
Yunusobod	4 837	5 380	111,2
Mirzo Ulug'bek	3 072	3 290	107,1
Mirobod	1 611	1 776	110,2
Shayxontoxur	5 001	5 142	102,8
Olmazor	5 770	6 105	105,8
Sergeli	3 210	3 888	121,1
Yakkasaroy	1 156	1 260	109,0
Yashnobod	3 190	3 653	114,5
Chilonzor	3 389	3 636	107,3



## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-sentabr



## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 14,1 ming ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy (119,8 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,7 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan **yuqori pasayish sur'atlari** Uchtepa (66,0 %), Chilonzor (72,8 %), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik (2020-yil yanvar-sentabr)**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-yil.	2020-yil.	O'sish surati foizda	2019-yil.	2020-yil.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahri tumanlar:</b>	<b>14 886</b>	<b>14 140</b>	<b>95,0</b>	<b>3 408</b>	<b>2 746</b>	<b>80,6</b>
Uchtepa	1 799	1676	93,2	379	250	66,0
Bektemir	273	264	96,7	73	61	83,6
Yunusobod	2 044	2017	98,7	418	361	86,4
Mirzo Ulug'bek	1 333	1149	86,2	409	322	78,7
Mirobod	746	729	97,7	221	173	78,3
Shayxontohur	1 889	1738	92,0	324	290	89,5
Olmazor	2 015	2016	100,0	386	327	84,7
Sergeli	1 331	1242	93,3	332	281	84,6
Yakkasaroy	561	672	119,8	149	118	79,2
Yashnobod	1 404	1163	82,8	345	292	84,6
Chilonzor	1 491	1474	98,9	372	271	72,8

## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik  
(2020-yil yanvar-sentabr)





## Toshkent shahri bo'yicha Demografik holat


**Migratsiya.** 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 63,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,7 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini 59,7 ming kishi tashkil etib, 2019-yilning mos davrida 19,3 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	25,2	63,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	5,9	3,7
<b>Migratsiya saldosini</b>	19,3	59,7



### Toshkent shahrining tumanlar kesimidagi aholi migratsiyasi (ming kishi)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (12,9 ming kishi), Olmazor (6,4 ming kishi), Mirzo Ulug'bek (6,8 ming kishi) hamda Sergeli (9,9 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: D.Raxmedova

(71) 203--88-48